

**ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI
KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH**

Pardabayev Daston Abdusaid o'g'li

O'ktamova Shahnoza Uchqun qizi

JDPU sirtqi bo'limi "Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lism" kafedrasi o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatish haqida gap boradi. Maqoladan bakalavr yo'nalishidagi talabalar foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lism, model, mantiq, kreativ, mashg'ulot, test, fikr, bilim, o'quvchi.

Аннотации: В данной статье речь пойдет о том, как научить младших школьников мыслить креативно в современном образовательном процессе. Статья может быть использована студентами бакалавриата.

Ключевые слова: Образование, модель, логика, творчество, обучение, тестирование, мысль, знания, ученик.

Annotation: This article is about teaching elementary students to creative thinking in the process of modern education. The article can be used by undergraduate students.

Keywords: Education, model, logic, creative, training, testing, thought, knowledge, reader.

Mavzuning dolzarbliji shundaki, biz ta'lim jarayonida rivojlangan davlatlar modelini tatbiq etmoqdamiz. Ularni o'rganish jarayonida ta'limda noan'anaviylik, o'quvchilarga mantiqiy va kreativ fikrlashga undovchi qiziqarli mashg'ulotlar olib borilishi kuzatilgan. Bunga misol qilib, ta'limda tatbiq etishni boshlaganimiz Piza o'quv dasturini olaylik. Pirls testlari o'quvchini bir masala yuzasidan chuqur mantiqiy fikrlashga undaydi. Unda fikrlar xilma-xilligini paydo qiladi. Aynan ushbu dastur orqali mamlakatning ta'lim sohasidagi salohiyati, erishilgan yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Buning ahamiyatli jihatni shundaki ta'lim jarayonida erkinlik va fikrlar xilma-xilligi tadbiq etilsa, bu tezda samara beradi.

Mustaqillik yillarda yurtimizda ta'lim sohasida tub islohatlar amalga oshirildi. Xususan, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham bu sohaga alohida e'tibor qaratib, shunday degan edilar. "Olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak. Chunki ma'naviy boylikni aynan shular yaratadi. Ularga g'amxo'rlik qilish samarali faoliyat uchun barcha zarur moddiy, ma'naviy sharoitlarni yaratib berish, davlat hokimiyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va ma'sulyatli vazifasidir". Darhaqiqat ijodkorlarga erkin imkoniyat yaratilgandagina ular turli xil ixtiolar qilish mumkin. Tarixga nazar tashlasak, mustabid tuzum davrida kreativ fikrlovchi ijodkorlar, davlat arboblari, "xalq dushmani" sifatida qatog'on qilingan. Ko'plab

ma'rifatparvar bobolarimiz o'zlarini fikrlarini erkin bayon qila olmagan. Buning oqibatida iqtisodiyot va ta'lif faqat bir yoqlama rivojlangan.

Ta'lif sohasida erkin ijodkorlikni joriy etar ekanmiz, bunda ta'lifni quyi bosqichi maktabgacha ta'lif sohasidan boshlashimiz lozim. Sungi yillarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lif vazirligining tashkil etilishi bunga yaqqol misoldir. Bu borada amaldagi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini eslash o'rini "Birinchi vazifa maktabgacha ta'lif sohasida ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdek. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etadi. Yaqinda tasdiqlangan dasturga ko'ra bu yo'nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy texnik bazasini mustahkamlandi".

Bog'cha yoshida o'quvchida mustaqil fikrlash iqtidorini ro'yobga chiqarish va unga to'g'ri yo'nalish berish juda muhim. Shuning uchun bog'cha ta'lifida ham o'quvchilarga mantiqiy izchillikka asoslangan mashg'ulotlar berilsa, o'quvchining yuksalishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda yurtimizda maktab ta'ligma juda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa jahon andazalariga javob beruvchi Prezident maktablari va xususiy maktablarning joriy etilishi bunga yaqqol misoldir. Aynan ushbu o'quv muassasalarida amaliy va nazariya uzviy tarzda erkin fikrlashga va kreativlikka asoslanadi. Shu bois bunday maktablarda o'qigan bolalar alohida ajralib turadi. Shuningdek ta'lifning yuqori bo'g'ini bo'lgan oliy ta'limda ijodkorlikning o'rni nihoyatda beqiyos. Oliy ta'lifdagi yaratilgan imkoniyatlар haqida quyidagilarni eslab o'tish kifoya. "*Oliy ta'lif sohasida oliy o'quv yurtlarining professor o'quvchilarini muntazam qayta tayyorlash bo'yicha yangi, takomillashtirilgan tizim joriy etildi. 15 ta tayanch oliy o'quv yurtida oliy ta'lif muassasalari rahbarlari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda oliy o'quv yurtlarining 2 ming 700 ga yaqin o'quvchisi malaka oshirdi*".

Ushbu ko'rsatkichlar mustaqillikning dastlabki davridagi oliy ta'lifdagi ko'rsatkichlardir. So'ngi paytlarda yurtimizda barcha sohalar singari oliy ta'lifda ham islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa professor o'qituvchilarning ilmiy kashfiyotlari evaziga rag'batlantirilishi ularning oylik maoshlarining oshirilishi, oliy talimda kirish imtihonlarining yanada shaffoflashuvi bunga misoldir. So'ngi yillarda dunyoning rivojlangan oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ilmiy ijodiy kashfiyotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida turli fan sohalarida yuksalishi ro'y berishi kuzatilmoqda. Respublikaning bosh qonuni Konstitutsiyamizda ham ta'lif tizimi, erkin ijodkorlik va ilmiy kashfiyotlarni qo'llab-quvvatlash borasida 41-42 moddalarida so'z yuritilgan. Xususan, 41-moddada shunday deyilgan "*Har kim bilim olish xuquqiga ega . Bepul umumiy ta'lif olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir*".

42-moddada esa, "*Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy , ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi*".

Bundan ko'riniib turibdiki, yurtimizda ilmiy kashfiyotlar va bilim olishga katta yo'l ochildi. Ular davlat tomon idan rag'batlantiriladi. Shuning bilan birgalikda bu kashfiyotlar vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun amalga oshirilishi lozim. Insonlar hayotiga rahna soluvchi taraqqiyotga zid bo'lgan ilmiy texnik kashfiyotlarga yo'l ochilmaydi , jinoioy javobgarlikka tortiladi.

Jamiyat taraqqiyoti ilmiy tadqiqot faoliyatiga asoslanadi. Jamiyatda turli xil tadqiqotlar bo'lsa unda yuksalish bo'ladi. XX asrning oxirida ro'y bergan fan-texnika inqilobi ham insonlarning yuksak ijod mahsuli hisoblanadi. |Bu davrga kelib turli xil tadqiqotlar yaratildi. Bu xususida faylasufning quyidagi fikrlarini eslash o'rini "Ilmiy tadqiqot faoliyati insonga o'z-o'zini baholashga yordam beradi, ya'ni agar inson haqiqiy olim bo'lishni istasa, o'zining ehtiros va intilishlarini boshqarishi, oqilona, samarali va optimal qarorlar qabul qilishi , ezgulikka xizmat qiladigan evristik faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi lozim. Bunday faoliyatning natijasi kashf qilish va yaratuvchanlik sifatida namoyon bo'ladi"

Bunday kashfiyotlarni va ijod mahsullarini yaratuvchi kishilar odatda kreativ kishilar deb aytiladi. Bundan ko'rindiki ijodkorlik va ijod mahsuli, ilmiy amaliy kashfiyotlar va ixtiolar noan'anaviy mantiqiy tafakkur magsuli hisoblanadi. Yurtimizda fan va texnika rivoji va ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanuvchi kishilarga barcha sharoitlar yetarlicha yaratib berilgan va yaratilmoqda. Bu jarayon Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tamonidan nazoratga olinadi. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin. O'zbekiston mustaqillikining dastlabki kunlaridanoq fan va texnika sohasining rivojlanishi uchun ko'plab tashkiliy-amaliy ishlar olib borildi. Jumladan: 1992-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi "Fan va texnika qo'mitasi" tuzildi. 2002-yil 20-fevraldag'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy tadqiqot faoliyatining tashkil tog'risida"gi 77 qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzurida ilmiy texnika taroqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi tuzildi.

Bundan ko'riniib turibdiki yurtimizda bu sohaga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, har qanday jamiyatning undagi qonunlar bajarilishiga asoslanadi. Tarixga nazar tashlasak, bizning buyuk ajdodlarimiz dunyo ilim faniga asos solishgan. Ibn Sino, Beruniy, Abu Nasr Farobi, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek , Alishar Navoiy, Ahmad Farg'oniy kabilalar fanning turli xil sohalarida o'ziga xos inqilob yaratishgan. Bizning ona yurtimiz ilm-fan o'choqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu buyuk ajdodlarimizning betakrorligi shundaki , ular yuksak darajada kreativ fikrlovchi , mantiqiy fikr yurituvchi kishilar bo'lishga. Hozirgi kunda ham shu kabi buyuk allomalarni yetishtirib chiqarish uchun biz ta'lim sohasini yangitdan isloh qilish yo'lini boshladik.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, **Birinchidan:** kreativ fikirlilik hamma sohada ham ahamiyatga ega. Ayniqsa, tibbiyot xodimlari, yuristlar, iqtisodchilar, arxitektorlar, pedogoller, faylasuflar va boshqalar.

Ikkinchidan: Barcha sohadagi yetuk kadrlarni, ta'lim sohasini rivojlantirish orqali yetishtirib chiqaramiz . Shuning uchun bu sohaga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uchinchidan: Ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha turdagи pedogologlar avvalo, kreativ fikrlovchi , ijodkor o'ziga xos uslubiga va yo'nalishiga ega bo'lishi lozim.

To'rtinchidan: Ta'limning barcha sohalarida o'ziga xos sog'lom raqobatni yaratish va u orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini anglash lozim. **Beshinchidan:** Bu sohada yangilik yaratish, yaratuvchanlik va izlanishlar bo'lmasa, jamiyatning biror bir sohasida rivijlanish ko'zga tashlanmaydi. Biz dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga istar ekanmiz uning poydevori ta'lim tizimi orqali yaratilishini idrok etishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: O'zbekiston. 2016
2. Pedagogika. O'. Asqarova va boshqalar. 7-bob. "Fan", 2004-yil
3. Xalq ta'limi jurnali . 2018-yil. 3-son
- 4."Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016